

CHET TILLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANIB INTERAKTIV MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Tursunova Shaxnoza Ikromovna

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Resume: The article deals with implementation of interactive forms of teaching foreign language and efficiency of Foreign language lessons using interactive methods in educational institutions.

Резюме: В статье рассматриваются различные способы реализации интерактивных форм обучения в преподавании иностранного языка и повышения эффективности уроков иностранного языка с использованием интерактивных методов в учебных заведениях.

Ilm-fan sohasidagi har kuni, har soatda bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlar ilm ahlining oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yadi. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilimli va iqtidorli mutaxassislarni talab qiladi.

Bugungi kundagi zamon talabi - salohiyatli, shu bilan birga zamonaviy bilimlarni, computer texnikasini, multimedia vositalarini puxta o'zlashtirgan va chet tilini mukammal biluvchi farzandlarni tarbiyalashdir.

Shu jihatdan chet tili o'qituvchisining metodik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Fanni yaxshi bilish bilan birga, bugungi kunda ta'lim jarayoniga keng joriy qilinayotgan axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'la foydalanadigan o'qituvchi o'z faoliyatida yaxshi samaraga erisha oladi [1].

Bolalar bugun axborot vositalari orqali o'ta tarmoqlashgan muhitda ulg'aymoqdalar. Kechayotgan global jarayonlar va yangi axborot texnologiyalari bolalarda ham tilga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib kelmoqda. Hattoki, kichkina bolalarning kundalik hayoti ham ko'p joylarda axborot vositalari hamda ko'p madaniyatlilik va ko'p tillilik ta'siri ostida kechmoqda. Biz yashayotgan dunyoning madaniy jihatdan ko'p qirraliligi va tillarining turli-tumanligi nafaqat bolalar bog'chalari va maktabda, balki undan ham oldin oila va bolaning bevosita atrof-muhitidagi munosabatlarida namoyon bo'ladi

Shundan kelib chiqib zamonaviy o'qituvchi o'z fanini chuqur bilish bilan birga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan xabardor bo'lishi, internetdan, komputer imkoniyatlaridan yo'qori darajada foydalana olishi lozim. Qolaversa har bir darsni multimedia vositalari, didaktik materiallar, ko'rgazmali qurollar orqali jonli, qiziqarli tashkil etish ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi [2]. Jumladan:

Sinfda o'qituvchi foydalanishi mumkin:

- O'qituvchi-talabalar tomonidan yaratilgan taqdimotlar yoki veb-prezentatsiyalar.

- Elektron ensiklopediyalar.

- Elektron darsliklar. (Talabadan birinchi navbatda o'quv kursini kuzatish yoki olingan bilimlar asosida virtual eksperiment o'tkazish, so'ngra bilimlarni dasturiy ta'minotni boshqarish tizimidan o'tish taklif etiladi).

- Interaktiv treninglar

- O'qituvchiga topshiriqlarning savollarini o'zi shakllantirish va kompyuter tomonidan berilgan ballni jurnalga kiritish imkonini beruvchi test konstruktorlari.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha asosiy dars turlariga esa quyidagi samadorligi yuqori misollarni keltirish mumkin:

- Kompyuterdan proyektor yordamida demo rejimida foydalaniladigan darslar / yoki interfaol doska yordamida dars.

Multimedia yordamida hal qilinadigan vazifalarning asosiy guruhlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning o'quv ishlarini qo'llab-quvvatlash;

- ona tilida so'zlashuvchilar bilan haqiqiy muloqotni ta'minlash;

- markazlashtirilgan axborot tizimlarida saqlanadigan jadal o'sib borayotgan axborot fondlaridan ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga kirishini ta'minlash; - o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlash, pedagogik tajriba va didaktik materiallar almashish.

Jumladan, internet orqali chet tillarni o'rganish va o'rgatish turli tillarda muloqot qiluvchi kishilarni uzviy aloqaga kirishuvdan tashqari, mamlakatlar, kishilarning turmush tarsi bilan ham yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu o'rinda tili o'rganilayotgan mamlakat kishisi bilan muloqotga kirishish oquvchiga o'z nutqiy fikrlarini chet tilida ifoda eta bilishida, xatolarni to'g'rilashda hamda yangidan-yangi ma'lumotlarni o'zlashtirib olishda yordam beradi.

Yo'qoridagilardan kelib chiqib shunday misol keltirib o'tishimiz mumkin. Aytaylik biz darsda o'quvchilarga xat yozish tartibini o'rgataymiz. O'quvchi shunchaki noma'lum kishiga xat yozgandan ko'ra tili o'rganilayotgan mamlakatdagi o'quvchilar bilan internet orqali aloqa qilib ma'lum mavzularda xat almashishsa, birinchidan, javobgarlikni ko'proq his qiladilar, ikkinchidan ko'proq mustaqil izlanishadilar va uchinchidan xato qilmaslikka va e'tibor qozonishga harakat qiladilar. Ayniqsa usha mamlakat kishisidan javob xati olishsalar ulardagi qiziqish yanada ortadi.

O'z ustilarida yanada ko'proq ishlaydilar. Bu bulan ular nafaqat nutq ko'nikmalarini oshiradilar, balki mamlakatshunoslik sohasidagi bilimlarini oshirish uchun ham imkoniyatlar eshigini ochadilar. Zero ular o'z yashab turgan joylari haqida ma'lumotlar yuborib, tili o'rganilayotgan mamlakat, ularning urf odatlari, kishilari haqida ma'lumotga ham bo'la oladilar. Ayniqsa tili o'rganilayotgan mamlakat kishisi yoki o'zlariga o'xshab til o'rganayotgan boshqa mamlakatlar o'quvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri jonli muloqot ularga ta'sirli motivatsiya beradi. Ular bu vazifalarni o'qituvchilari va guruh a'zolari bilan birgalikda, dars jarayonida yoki darsdan tashqari vaqtda ham amalga oshirishlari mumkin [3].

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, ularga ko'proq mustaqil vazifalar berish, rang-barang qiziqitiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish yangi ta'lim standartiga aylanmoqda. Multimediali darsliklar yaratishda ishlanmalarni metodik ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Multimedia – darsliklar o'qitishning barcha bosqichlarini avtomatlashtirishga qaratilgan, ya'ni o'quv materialini tushuntirishdan boshlab to bu bilimni nazorat qilish va yakuniy baho qo'yishgacha. Bundan barcha asosiy o'quv materialini yorqin, qiziqarli, mazmunli o'yin shakliga keltirilgan, grafikadan, animatsiyadan, shuningdek interfaol, ovoz jo'rli, videolavhalar qo'shib keng foydalanilgan multimedia shaklida o'tkaziladi [4].

O'quvcilarda xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida bolalarga rivojlanish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish maqsadida barcha resurslardan to'la foydalaniladi, bola umumiy rivojlanishining emotsional, ijodiy, ijtimoiy, kognitiv va lingvistik o'lchov birliklari shular jumlasiga kiradi. Madaniyatlararo muloqot qilish kompetentsiyasi ham asosan bular qatoriga kiradi.

Madaniyatlararo muloqot qilishga qiziqadigan va ochiqko'ngilli o'quvchi keyinchalik madaniyatlararo muloqotga qodir insonga aylanadi, zero bugungi kun chet tili mashg'ulotlarining e'tirof etilgan maqsadi ham shudir.

O'quvchining xorijiy tillarni bilish kompetentsiyasi til sohiblarining ona tilini bilish kompetentsiyasi bilan o'lchanmay, aksincha madaniyatlararo muloqotning ko'p qirrali vazifalarini uddalay olish qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. O'quvchilar madaniyatlararo muloqotga qodir insonga xos ochiqlik va bag'rikenglik ruhida shakllanish darajasida rag'batlantirilishi hamda barcha darajadagi va turli yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan chet tili darslarida mazkur xususiyatlarni rivojlantira oladigan mazmundagi mavzular tavsiya qilinishi lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu usullar yordamida fikr almashiladi. Bu esa talabadagi nutq faoliyati va mustaqil fikr yuritishni rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi.

Foydalanilgan Adaboyotlar Ro'yxati:

1. Wahrig, Gerhard (1986): Deutsches Wörterbuch. München: Mosaik Verlag.
2. Engel, Ulrich (1988): Deutsche Grammatik. Heidelberg: Julius Groos Funk, Hermann u.a. (1994): *sowieso*, Arbeitsbuch 1. Berlin – München: Langenscheidt
3. Kleppin, Karin (1997) Fehler und Fehlerkorrektur, Fernstudienheit 19. Berlin - München: Langenscheidt
4. www.daf-netzwerk.org